

**SAMARQAND BAXSHICHILIK SAN'ATIDA NURMON SHOIR
ABDUVAY O'G'LINING O'RNI.**

Annakulova Dildora Baymuratovna

Guliston davlat Universiteti

“An’anaviy xonandalik va xalq cholg`ulari”

kafedraasi o‘qituvchisi

E-mail:dildoraannakulova36@gmail.com

+998998221180

Annotatsiya: Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoev tashabbuslari bilan Xalqaro baxshichilik san’ati festivalini o‘tkazish yo‘lga qo‘yildi. Baxshichilik san’atini tiklash va uni yangi avlodga etkazib berish yo‘lida yuqori saviyadagi islohotlar olib borilmoqda.¹ 2021 yil 16 dekabr kuni YUNESKOning Nomoddiy madaniy merosni asrash hukumatlararo qo‘mitasi tomonidan Baxshichilik san’ati Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi representativ ro‘yxatiga kiritilgani kata voqelik bo‘ldi. Mazkur maqolada Samarqand – qo‘rg‘oncha baxshichilik yo‘nalishida ijod qilgan Nurmon shoir haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Doston, baxshi, Nomoz o‘g‘ri, xalq qaxramonlari, termalar.

РОЛЬ ПОЭТА НУРМАНА В ИСККУСТВЕ БАХШЫ

Аннотация: По инициативе нашего Президента Шавката Миромоновича Мирзиёева был дан старт Международному фестивалю искусства бахши. Проводятся масштабные реформы по возрождению искусства бахши и передаче его новому поколению¹. 16 декабря 2021 года Межправительственный комитет ЮНЕСКО по охране нематериального

культурного наследия включил искусство бахши в Репрезентативный список нематериального культурного наследия человечества. В этой статье речь пойдет о поэте Нурмоне, творившем в самаркандско-курганском направлении бахши.

Ключевые слова: Достан, бахши, Намаз огри, народные герои, термальские источники.

THE ROLE OF THE POET NURMAN IN THE ART OF THE BAKHSHI

Abstract: On the initiative of our President Shavkat Miromonovich Mirziyoyev, the International Festival of Bakhshi Art was launched. High-level reforms are being carried out to restore the art of Bakhshi and pass it on to a new generation. On December 16, 2021, the UNESCO Intergovernmental Committee for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage included the art of Bakhshi in the Representative List of the Intangible Cultural Heritage of Humanity. This article will talk about the poet Nurmon, who worked in the Samarkand-Kurgan Bakhshi direction

¹ Sh. Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz” T: O‘zbekiston, 2017;

Keywords: Doston, baxshi, Namaz thief, folk heroes, terms.

Kirish. Xizr alayhissalom to‘g‘risida juda ko‘p rivoyatlar aytilgan. Muhammad Aminibn Jo‘ra barlos as-Samarqandiy nashrga tayyorlagan “Donishmand payg‘ambarlar ichida yigirma sakkizinchisi” deb ma‘lumot beradilar.

A. Navoiyning “Lison-ut tayr” asarida Iskandar va Xizr alayhissalom to’g’risida shunday rivoyat bor. Iskandar va Xizr obi hayotni izlashganu, uni zulmatdan toppish Xizrga nasib etgan. (“Xizr suvi”- obihayot).

Shu sabab hayot bulog’idan “Obihayot” ichgan Xizr alayhissalom ya’ni afsonaviy payg’ambarimizning umri boqiy bo’lgan: og’ir ahvolda qolgan kishining mushkulini oson qiluvchi, u zot bilan ko’rishgan kishiga omad kulib boquvchidir.

Albatta, ilohiy kuch, quvvat sohibi Xizr to’g’risida el o’rtasida ko’pdan-ko’p maqollar to’qilgan.

Misol uchun: Xizr nazar solmasa, shaharga Hokim bo’larmidi.

Xizr nazar qilmasa, machitga imom bo’larmidi.

Xizr dorimasa bozorga dallol bo’larmidi va hokazo.

Yani el ichida xalq nazariga tushadigan inson faoliyati sezilsa, albatta uni Xizr alayhissalomga bog’laydilar.

Asosiy qism: Baxshi shoir Abdiboy o’g’li Nurmuhammad el og’zida Nurmon shoir taxallusiga ega bo’lib, Xizr ko’rgan shoir deyishadi. Shu sabab ushbu maqolada achamoyli elining baxshisi to’g’risida ma’lumot berishni maqsad qilib qo’ydik. Nurmuhammad Abdiboy o’g’li 1862 yilda hozirgi paytda Kattaqurg’on tumaniga qarashli “Enam yaxshi” qishlog’ida achamoyli eli yashaydigan qishloqda tug’ilib, voyaga etgan. Elda savod chiqarish uchun sharoit bo’lmagan. Faqat bobosi Ahmad ohun tarbiyasida ulg’aygan ul muborak zotning shirin suhbatlari, farosatli hayot tarsi, xalq sayillari, to’ylari, gurunlarida o’zini donolarcha fikr yuritishi yosh Nurmuhammad qalbida eliga, yurtiga, xalqiga mehr- muhabbat uygotgan. Nevarasining xalq og’zaki ijodiga bo’lgan qiziqishini sezgan Ahmadoxun uni Saroyqo’rg’onlik Abduxoliq baxshiga shogirtlikka beribdi. Machitda o’qimaganligi sababli Nurmuhammad yozishni bilmas, faqat xotirasi kuchli bo’lganligi sababli ustozini to’y va gashtaklarda ijro etgan dostonlarini yotlab olishga harakat qilgan.

Akademik Hodi Zaripov ma'lumot berishicha , Nurmon shoir o'n beshdan ortiq terma va bir qancha dostonlarni yoddan bilgan va ijro etgan.²

Nurmon shoir faqat ustozidan eshitgan dostonlar bilan chegaralanib qolmasdan o'zi ham termalar to'qib ayta boshladi . Tarixchi olimlarimiz S. Sirojiddinov va N. Norqulovlarning ma'lumotlariga asoslanadigan bo'lsak, Nurmon shoir o'zi yashab yotgan davrga xos va uni hayratlantirgan voqealarni aks ettiruvchi o'nlab termalar bastalagan.

² H. Zaripov tomonidan yozib olingan va "O'zbek fol'klori" xristomatiyasiga kiritilgan "Nomoz o'g'ri" dostoni . 1939 yil.

Shulardan, "Sarkamni ber, Boyqora", "Yashasin, F. Xo'jayev", "Usmon baraka", "Yashasin, Oxunboboyev", "Temir yo'l", "Dehqoni bor o'zbekning", "Chigirtka", "Ochil dav", "Do'mbiram", "Abdulla kofir" kabi termalari, "Nomoz o'g'ri " dostoni tarixiy manbalarda uchraydi.³

Darhaqiqat shoir to'g'risida ijodiy izlanishlar ko'rsatmoqdakim , shoirning ijodida tarixiy faktlar, xalq qaxramonlari, vatan himoyachilari , zamondoshlarini chorizmga,o'z davriga xos kurashlari, zamondoshlarni vatan uchun, vatan baxt saodati uchun jon fido qilgan mardliklari to'g'risida ma'lumotlar aks ettirilgan. Nurmon shoir ijodi to'g'risida olimlarimiz professorlar Umrzoq Jumanazarov, Bozorboy O'rinboyev, tarixchilarimiz N. Norqulov S. Sirojiddinov, Yu. Aleksandrov, S. Umarov, A. Pyazkovskiy: akademiklar H. Zaripov, To'ra Mirzayev va boshqalar ko'plab ilmiy maqolalar va kitoblar yozganlar.⁴

Ayniqsa, 1936 yil O'zbek folklorshunosligida shoirning Y. Oxunboboyev haqida yozgan termasi o'rin olganbo'lsa, 1939 yilda H. Zaripov tomonidan yozib olingan va "O'zbek fol'klori" xristomatiyasiga kiritilgan "Nomoz o'g'ri" dostoni juda ko'p olimlar tomonidan o'rganilgan. Jizzax DPI professori U. Jumanazarov shoir ijodini o'rganar ekan, shunday so'z

yuritadi. “Kattaqurg’onlik Nurmon shoir o’z dostonida qasoskor- Nomoz Pirmqul –xalq ozodlik kurashchisi va uning yigitlari tomonidan olib borilgan shiddatli kurashlar Nikolayni ham Buxoro amirini ham jiddiy tashvishga solib qo’yganligini zo’r bir qoniqish, quvonch bilan kuylaydi. Masalan:

Bedov minib sarg’isini silatdi,
Murodini bir Xudodan tilaydi.
Yaqin dedi Qarshi cho’lin taladi,
Amir podshohni taxt ustida yig’latdi,
Xech ko’rmadik Nomozdayin azamatti.
Kecha – kunduz yurgani dala dasht bo’ldi,
O’ttiz yigitlarga o’zi bosh bo’ldi,
To ulguncha Nikolay bilan g’ash bo’ldi,
Namozdayin bir zo’r otdi jahonda....

Xulosa: Birgina “To o’lguncha Nikolay bilan g’ash bo’ldi” satrining o’zida deydi olimning o’zi ham Nurmon baxshining, ham qasoskor Nomozning chorizm va uning siyosatiga bo’lgan munosabati ro’y-rost o’z ifodasini topgan .

³ D ANNAKULOVA HISTORICAL FORMATION OF SAMARKAND SCHOOL OF EPIK AND THE ROLE OF BAKHSHI PERFORMANCE TRADITIONS In Volume 3 Issue 03of International Bulletin of Engineering and Technology ISSN: 2770-9124 18.03. 2023.

⁴ Annakulova Dildora Baymuratovna. (2024). SAMARQAND DOSTONCHILIK MAKTABINING TARIXIY SHAKLLANISHI VA BAXSHI IJROCHILIGI AN’NALARINING TUTGAN O’RNI. "MUSIQA TA'LIMI VA SAN'ATINING BUGUNGI GLOBALLASHUV SHAROITDA MILLIY-IJTIMOIIY AHAMIYATI: MUAMMO VA YECHIMLAR" (ASR),

Tashkent, Uzbekistan. Academic Scientific Research Group.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14468858>Annakulova

Professor U. Jumanazarovning xulosasiga e'tibor qilar ekanmiz , faqat Nomoz Pirimqulov emas, balki Nurmon shoirning xam chorizm tizimiga nafrat bilan qaraganligining guvohi bo'iamiz.

Shoirning Nomoz to'g'risidagi quydagi termalariga nazar tashlaylik.

Nomozbek deydilar asli otini,
Dahbed deydi o'sgan viloyatini,
Bir fasl qilayin ta'rif –otini,
Gazet bilan eshitib edi Nikolay,
Zor yig'ladi o'rdadagi xotini.

Shoir tarixiy shaxs, xalq ozodlik kurashchisi Nomoz to'g'risida doston yozib, Nikolay poshsho tizimiga ham norozilik bildiradi.

Shunisi e'tiborga loyiqki, Nurmon shoir hech qanday xavf-xatardan qo'rqmay, o'zining Nomoz va uning yigitlariga bo'lgan mehrini Nomoz dostonida ro'yi-rost aytadi. Bu aslida har qanday qasoskorning qahramonligidan qolishmaydigan jasoratdir.⁵

⁵Konurova Leyla Ruslanovna. THE INFLUENCE OF TRADITIONAL AND NON-TRADITIONAL MUSICAL AND PLAY ACTIVITIES ON CHILDREN'S DEVELOPMENT. (2025). World Bulletin of Social Sciences, 44, 53-56.

<https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/5097>

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz” T: O‘zbekiston , 2017;
2. H. Zaripov tomonidan yozib olingan va “O‘zbek fol’klori” xristomatiyasiga kiritilgan “Nomoz o‘g‘ri” dostoni . 1939 yil.
3. D ANNAKULOVA HISTORICAL FORMATION OF SAMARKAND SCHOOL OF EPIK AND THE ROLE OF BAKHSHI PERFORMANCE TRADITIONS In Volume 3 Issue 03of International Bulletin of Engineering and Technology ISSN: 2770-9124 18.03. 2023.
4. Annakulova Dildora Baymuratovna. (2024). SAMARQAND DOSTONCHILIK MAKTABINING TARIXIY SHAKLLANISHI VA BAXSHI IJROCHILIGI AN'NALARINING TUTGAN O'RNINI. "MUSIQA TA'LIMI VA SAN'ATINING BUGUNGI GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY-IJTIMOY AHAMIYATI: MUAMMO VA YECHIMLAR" (ASR), Tashkent, Uzbekistan. Academic Scientific Research Group.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14468858>
5. Konurova Leyla Ruslanovna. THE INFLUENCE OF TRADITIONAL AND NON-TRADITIONAL MUSICAL AND PLAY ACTIVITIES ON CHILDREN’S DEVELOPMENT. (2025). World Bulletin of Social Sciences, 44, 53-56.
<https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/5097>